

GLOBAL PANDEMIYALARDAN KEYINGI DAVRDA PROFILAKTIK TIBBIYOTNING ROLI

Olimova Shahinabonu Oybek qizi

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat
tibbiyot instituti tibbiy profilaktika yo'nalishi 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19593198>

Annotatsiya. Mazkur maqolada global pandemiyalardan keyingi davrda profilaktik tibbiyotning ahamiyati, uning asosiy yo'nalishlari hamda sog'liqni saqlash tizimidagi o'rni yoritilgan. Pandemiya tajriba asosida kasalliklarni oldini olish, erta aniqlash va aholi salomatligini mustahkamlashning ustuvor vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: pandemiya, profilaktik tibbiyot, epidemiologik nazorat, vaksinatsiya, sog'lom turmush tarzi, telemeditsina.

Kirish: Profilaktik tibbiyotning mohiyati

Profilaktik tibbiyot — sog'liqni saqlash tizimining muhim bir qismi bo'lib, kasalliklarni oldini olish, ularning rivojlanishini sekinlashtirish va sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu soha, nafaqat individual salomatlikni, balki jamiyatning umumiy farovonligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda, global miqyosda kasalliklarning ko'payishi, kasalliklarning paydo bo'lishi va surunkali kasalliklarning tarqalishi, profilaktik tibbiyotning ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Ommaviy sog'liqni saqlash tadbirlari, shaxsiy profilaktika va sog'lom turmush tarzi, kasalliklarning oldini olishda asosiy omillar hisoblanadi.

Profilaktik tibbiyot – kasalliklarning kelib chiqishini oldini olish, ularni erta bosqichda aniqlash hamda asoratlarini kamaytirishga qaratilgan tibbiyot sohasi hisoblanadi. U uch bosqichga bo'linadi:

Birlamchi profilaktika – emlash, maqsadli skrining va tibbiy ko'riklarni amalga oshirish, oqilona ish va dam olish, sport bilan muntazam shug'ullanish, badantarbiya mashg'ulotlarini kundalik turmush tarziga aylantirish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, sog'lom

Ikkilamchi profilaktika – ma'lum sharoitlarda immun holatining kamayishi, o'ta zo'riqish, adaptiv yetishmovchiliklar sabab yuzaga keladigan kasalliklarning kelib chiqishi, avj olishi yoki qaytalanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan aniq xavf omillarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq qilish, shuningdek, tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish.

Uchlamchi profilaktika — bu kasallik rivojlanib bo'lganidan keyin uning asoratlarini kamaytirish, nogironlikning oldini olish va bemorning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan tibbiy chora-tadbirlar majmuasidir.

Pandemiyadan keyingi davrda aynan birlamchi va ikkilamchi profilaktika ustuvor yo'nalishga aylandi.

Epidemiologik nazorat va monitoring: Global pandemiya sog'liqni saqlash tizimida epidemiologik nazoratning muhimligini isbotladi. Zamonaviy laborator diagnostika, tezkor test tizimlari, kasalliklarni monitoring qilish va axborot almashinuvi tizimlarini takomillashtirish kelajakdagi infeksiyon tahdidlarning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Pandemiyadan keyingi davrda profilaktikaning ahamiyati: "Pandemiya" – yuqumli kasallikning epidemiyasi hisoblanadi. U to'satdan ko'payib, katta mintaqada, masalan, bir nechta qit'alarda yoki butun dunyo bo'ylab tarqaladi va ko'plab odamlarga ta'sir o'tkazadi.

Mavsumiy gripp kabi endemik kasalliklarga chalingan bemorlar sonining ko'pligi pandemiya hisoblanmaydi, chunki bunday kasalliklar butun dunyo bo'ylab tarqalish o'rniga bir vaqtning o'zida dunyoning katta mintaqalarida sodir bo'ladi.

XXI asrda yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi butun dunyo sog'liqni saqlash tizimiga jiddiy sinov bo'ldi. Ushbu global inqiroz shuni ko'rsatdiki, kasallikni davolashdan ko'ra uni oldini olish ancha samarali va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Pandemiya davrida yuzaga kelgan yuqori o'lim ko'rsatkichlari, sog'liqni saqlash tizimiga tushgan og'ir yuk va iqtisodiy yo'qotishlar profilaktik tibbiyotning ahamiyatini yanada oshirdi.

Vaksinatsiya tizimining ahamiyati: Pandemiya qarshi kurashda vaksinatsiya eng samarali profilaktik choraga aylandi. Ommaviy emlash aholi immunitetini shakllantirish va kasallik tarqalishini kamaytirishda asosiy rol o'ynadi.

Kelgusida yangi shtammlar paydo bo'lishi ehtimoli mavjudligi sababli vaksinalarni takomillashtirish va immunitet monitoringini olib borish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Sog'lom turmush tarzi va immunitetni mustahkamlash: Pandemiya inson organizmining himoya tizimi – immunitet muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. To'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish va ruhiy barqarorlikni saqlash profilaktik tibbiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir.

Raqamli tibbiyot va telemeditsina: Pandemiya davrida masofaviy tibbiy maslahatlar keng qo'llanildi. Telemeditsina, elektron tibbiy kartalar va onlayn monitoring tizimlari kasalliklarni erta aniqlash va nazorat qilishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Bu esa kelajakda profilaktik tibbiyotning samaradorligini oshiradi.

Natijalar: Profilaktik tibbiyotning dolzarb muammolarini o'rganish jarayonida quyidagi statistik ma'lumotlar keltirilishi mumkin: Kasalliklarning tarqalishi: Yuqumli kasalliklar 20 21-yilda O'zbekistonda gripp va boshqa yuqumli kasalliklar bilan bog'liq holatlar 25% ga oshdi.

Surunkali kasalliklar: Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda surunkali kasalliklar (masalan, yurak-qon tomir kasalliklari) 70% dan ortiq o'lim holatlarining sababidir.

Profilaktika tadbirlari: Vaksinatsiya: 2023-yilga kelib, O'zbekistonda bolalar uchun vaksinatsiya darajasi 95% ni tashkil etdi, bu esa yuqumli kasalliklarning oldini olishda muhim omil bo'ldi. Sog'lom turmush tarzi: O'zbekiston aholisining 40% dan ortig'i jismoniy faoliyatni etarli darajada amalga oshirmaydi, bu esa surunkali kasalliklar xavfini oshiradi.

Sog'liqni saqlash xarajatlari: Profilaktik xizmatlarga sarflanadigan mablag'lar: 2022 yilda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimiga ajratilgan byudjetning 15% i profilaktik tadbirlarga sarflandi, bu esa umumiy xarajatlarning 3% ni tashkil etadi.

XULOSA

Global pandemiyalar sog'liqni saqlash tizimining ustuvor yo'nalishi profilaktik tibbiyot bo'lishi zarurligini ko'rsatdi. Kasalliklarni oldini olish, erta aniqlash va aholi salomatligini mustahkamlash kelajakdagi epidemiologik tahdidlarga qarshi samarali himoya vositasidir.

Profilaktik tibbiyotni rivojlantirish orqali:

o'lim va nogironlik ko'rsatkichlari kamayadi;

sog'liqni saqlash xarajatlari qisqaradi;

jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi ta'minlanadi.

Shu sababli pandemiyadan keyingi davrda profilaktik tibbiyot davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Ushbu tadqiqot, profilaktik tibbiyotning dolzarb muammolarini va uning ahamiyatini o'rganishga qaratilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki:

- Kasalliklarning oldini olish: Yuqumli va surunkali kasalliklar tarqalishi, profilaktik tadbirlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi.

- Sog'lom turmush tarzi: Aholining jismoniy faoliyatini oshirish va sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilish, surunkali kasalliklar xavfini kamaytirishga yordam beradi. Bu borada ommaviy sog'liqni saqlash dasturlari muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ruzimurotova Y. S., Axrorova G. M. Socio-hygienic Study of the Health, Lifestyle and Working Conditions of Health Workers //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 165-170.
2. Rizaev J. A., Ruzimurotova Y. S., Khaydarova G. A. THE IMPACT OF SOCIAL AND HEALTH FACTORS AT WORK AND AT HOME ON NURSES'HEALTH //Вестник магистратуры. – 2022. – №. 2-1 (125). – С. 10-12.
3. Shomurotovna R. Y. et al. SOG'LIQNI SAQLASHNI TASHKIL ETISHDA GERANTOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 40. – №. 2. – С. 111-114.
4. Shomurotovna R. Y., Ismoilovna A. M. TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY FAOLIYATDA SALOMATLIKKA TASIR QILUVCHI XAVF OMILLAR //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 3. – С. 160 164.
5. Shomurotovna R. Y., Ismoilovna A. M. SOG'LOM OVQATLANISH TAMOYILLARI //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – Т. 11. – №. 3. – С. 134-137.